

## EKOLOGIYA VA SALOMATLIK YOKI EKOLOGIK MUAMMOLAR VA (INSON SALOMATLIGI) SALOMATLIK

**Z.I. Yuldasheva**

T.f.n. Agren universiteti katta o'qituvchi  
E-mail: [Zarofatyuldasheva253@gmail.com](mailto:Zarofatyuldasheva253@gmail.com)

**M.I. Raxmatullayeva**

Agren universiteti katta o'qituvchi

**Tadjiboyeva Nafosat Abdusattarovna**

E-mail: [Nafosattadjiboyeva@gmail.com](mailto:Nafosattadjiboyeva@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ekologiya va salomatlik yoki ekologik muammolar mavzusida yoritilgan bo'lib. Bu maqolada Inson organizmi atrof muhit bilan bog'liqligi va inson ta'sirida ekologiyaning o'zgarishi. Ekologik omillar, Tirik organizm va tashqi muhitga ekologiyaning ta'siri kabi muommolar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ekologiya, tashqi muhit, organizm, turli muommolar, tabiat salomatlik.

Inson organizmi atrof muhit bilan uzviy bog'langan. Tashqi muhitning odam ishtiroki va ta'siri ostida o'zgarishi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu vaziyat asosan texnika va iqtisodiyotning rivojlanishi, jadal o'sib borayotgan urbanizatsiya jarayonlari, yer resurslarining qisqarishi, aholi soning o'sib borishi, fabrika va zavodlarning ishlashi, odamning hayot keshirish jarayonida atrof – muhitning ifloslanishi, tashlandik yerlarning paydo bo'lishi, global iqlimning oshishi, yashil maydonlarning kamayishi, qurollanish poygasida o'tkazilayotgan tajribalar, har xil mikroorganizmlarning paydo bo'lishi tabiat muvozanatini bizilishiga olib kelmoqda, yani odam iste'mol qiladigan suv, havo, oziq – ovqat mahsulotlari radioaktiv va zaharli moddalar, so'ngi yillarda GDO mahsulotlarini bilan zaharlanmoqda. Bu esa o'z navbatid avlodimiz salomatligiga ta'sir ko'rsatmoda. Bundan tasjari ekologiyaning ta'siri ostida paydo bo'lgan yangi mikroorganizmlar turli xil infeksiyon kasalliklarnikeltirib chiqarmoqda, Misol tariqasiga aytib o'tish kerakki oxirgi yillarda paydo bo'lgan bir necha mamlakatlarga tarqalgan atipik og'ir pnevmoniya paranda grippi va COVID – 19 kasalligidir, bu kasalliklarni viruslar chaqiradi. Mana shu virus ekologik muvozanatning buzilishi natijasida o'z

xususiyatini o'gartirib kuchli patogen mikroorganizmga aylanadi, eng muhim tahdidlardan yana biri jumladan kislorod manbai bo'lgan yashil maydonlarni qisqartirilishi natijasida atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar, iqlim o'zgarishi oqibatida barcha tirik va titik jonzorlarga bevosita yomon ta'sir ko'rsatadi.

Butun jahon statistik ma'lumotlariga ko'ra aholining 10% qarilikdan, 20% baxtsiz xodisalar va janglardan, 70% haxil kasalliklardan vafot etmoqda. Shuningdek o'zimizning sog'ligimizning 50% o'zimizga, 20% ekologiyaga, 10% tibbiyotga bog'liq.

Hozirgi vaqtda turli zavod, fabrikalarda 45 mingga yaqin kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda va aholiga sorilmoqda, dunyo bo'ycha 300 million tonnaga yaqin organik moddalar ishlab chiqarilmoqda, lekin ishlab chiqarishda ishlatilayotgan bu kimyoviy moddalar ma'lum miqdorda suv, havo va oziq-ovqat mahsulotlari orqali inson organizmiga kelib tushmoqda, natijada turli xil yuqumli va allergik kasalliklar yuzaga keltirimoqda. Chunki ayrim kimyoviy moddalar zaharli xususiyatga ega bo'lsa, ayrimlari esa allarganlik, konseragenlik (yani onkologik kasalliklarini keltirib chiqaradi), mutagenlik (nasliy va irsiy kalalliklar), teraogenlik (mayib majruh, nogironlik) xususiyatlarga egadir. Bunday moddalarga: og'ir metal tuzlari noorganik gazlar va boshqalar misol bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida ham boshqa mamalakatlar singari lokal, region va global darajada ekologik muammolar vujudga kelmoqda. Ayniqsa ekinzorlardan yaxshi hosil olish maqsadida va ekinlarni kasalliklarda, parazitlardan saqlash uchun me'yorida ortiq darajada noorganik o'g'itlar gerbetsidlar va boshqa kimyoviy moddalar qo'llaniladi.

Tog'-kon sanoatining taraqqiyoti bilan yerlar tashlanduq holiga keltirildi, mineral resurslar noto'g'ri foydalanildi, natijada sun'iy ifloslanishlar vujudga keldi.

Bundan tashqari yer yuzini ifloslanishining eng muhim omillaridan biri bu nurlanishdir, uning ta'sirida inson organizmning a'zolari o'aro bog'liqligi buzilishi natijasida aholining ma'lum guruhlari va ayniqsa hamilador ayollar homilasiga, bolalarning o'sish va rivojlanish jarayonini susayishiga, immun tizimi susaygan qariyalar, sog'ligi zaif insonlar azob chekmoqdalar.

Yer usti va yer osti suvlarining ifloslanishi tezlanib, ichimlik suviga bo'lgan muhtijlik ortib bormoqda. Ekinzorlarni ko'paytirish munisabati bilan sug'oriladigan yer maydonlari ham ortib bormoqda. Oqibarda yirik daryolar va ularning urmoqlarining suvlari o'z manziliga yetib bormayotir. Masalan Orol dengizi, uning sohillarida bir necha kilometr ga chekinganligi oqibatida chang - to'zonlar havoga ko'tarilmoqda. Kaspiy dengizining suv sathi va suv hajmi ham kamaymoqda. "Orol muammosi" faqat Markaziy Osiyo mintaqasi uchungina bo'lmay, balki butun dunyo muammosiga aylanib qoldi.

Darhaqiqat, bundan 1000 yil muqaddam ulug'allomimiz Abu Rayhon Beruniyning "Agar insonlar tabiatga nisbatan zo'ravonlik qilib, unung qonunlarini qo'pollik bilan buzsalar, bir kun kelib, tabiat ularning boshiga shunday kulfatlar solishi mumkinki, buni hech qanday kuch qaytara olmas" – deb aytgan fikrlari to'g'ri bo'lib chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasida sanoat korxonasi boy shaharlar ko'p. Masalan: Angren, Olmaliq, Ohangaron, Chirchiq, Farg'ona, Navoiy kabi shaharlar aholisi zich joylashgan va sanoat korxonalariga boydir. Angren shahrining o'zida atrof muhitni ifloslantirayotgan korxonalar mavjud, jumladan Angren GRESi, sement zavodi, Yangi Angren GRESi, ko'mir - kon havzasi va boshqalar nmisol bo'la oladi. Sanoat korxonalaridan atmosfera havosiga ko'tarilayotgan zararli chiqindilar havo, suv va tuproqlarni yildan – yilga ifloslantirib kelayotgan edi va shu chiqindilar ta'siri ostida aholi orasida kasallanishlar ko'paymoqda. Masalan: aholi orasida allergiya, bronxial astma, surunkali bronxitlar, tuberkulyoz, irsiy, terikasalliklari, onkologik va kasb korga aloqador kasalliklar ko'paymoqda.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha to'plangan ma'lumotlarga ko'ra nafas olish a'zolari kasalliklari hozirgi paytda barcha kasalliklar ichida birinchi o'rinda turadi, kasallanish so'ngi yillar ichida ikki yarim baravaga oshgan, Bronxial astma va surunkali bronxit bilan kasallanish, reproduktiv funksiyaning buzilishi, homiladorlikni to'xtashi, o'z – o'zidan tushush, homiladorlik va tug'ish jarayoni paytida asoratlar, bolalarda o'sish va rivojlanishdan orqada qolish, tug'ma nogironliklar bilan kasalliklar namayon bo'lmoqda. Nospetsifik o'pka kasalliklari bilan, yurak qon – tomir va endokrin kasalliklari bilan bemorlar soni bir muncha ortiq. Nafas a'zolari kasalliklari natijasida mehnatga vaqtincha layoqatsizlik ancha ko'p uchraydigan qon aylanishi a'zolari kasalliklaridan ko'ra ko'proqdir, nafas a'zolari kasalliklari bo'yicha birlamchi nogironlik ham anchagina.

Hozirgi paytda yurtimizda sanitariya – epidemiologik muhitni barqarorlashtirish, atrof muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish ekologiya va gigiyenik tadbirlarni tashkil etish aholi orasida ekologik madaniyatni oshirish, inson salomatligini asrash va yuqumli kasalliklarni oldini olish bo'yicha barqarorlikni ta'minlashga ximat qilmoqda.

Bizning ma'lumotimizga ko'ra O'zbekiston mintaqalarida nospetsifik o'pka kasalliklarining tarqalishi ham turlicha, ekologik sharoiti yomon tamaki, chorvachilik, paxtachilik bilan shug'ullanuvchi hududlarda bu kasallik ko'p taqalgan. Angren aholisining salomatligini tiklash uchun shahar sanitariya – epidemiologic osayishtaligi va jamaot sagligini saqlash bo'limi nazorat qilib turmoqda, va davolash profilaktik yordam muassasalari xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, sanoat korxonalari chiqindilarini kamaytirish maqsadida, korxonalarni hozirgi zamon talabiga mos keladigan texnika va texnologiyalardan foydalanish zarur.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. <https://cyberleninka.ru>
2. Ekologik Asoslar .( Odum Eugene P)
3. Umumiy Ekologiya (Mustafoyev S )
4. Ekologiya va atrof muhit muhofazasi (Buriyev S.S )